

## MAXTUMQULI IJODINING YUKSAK BADIYYATI

**Sayat Avezqlicheva,**  
*Berdaq nomidagi QQDU, Turkman tili  
va adabiyoti kafedrasida assistenti*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Maxtumquli she'riyatining barcha turkiy millatlarning ham ma'naviy mulkiga aylanganligi, ijodidagi o'ziga xoslik bayon qilingan. Shoirning pand-nasihatga yo'g'rilgan she'rlari ko'proq talqin qilingan.*

***Kalit so'zlar:** do'stlik aloqalari, turkiy millatlar, badiiy meros, pand-nasihati, ishq, hayot falsafasi*

***Аннотация.** В данной статье подробно объясняется уникальность шариата Махтумкули, ставшего духовным достоянием всех тюркских народов.*

***Ключевые слово:** дружеские отношения, тюркские народы, художественное наследие, суфизм, философия жизни*

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi adabiy do'stlik aloqalari hamda yaqin qo'shnichilik munosabatlari tarixida yangi davr boshlangan ayni damda Maxtumquli Firog'iyning o'lmas badiiy merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki qardosh xalq uchun birdek aziz bo'lgan shoirning ajoyib she'riyati mamlakatimizda muntazam ravishda nashr etilmoqda. Hattoki Toshkent va Xiva shaharlarida shoir xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan yodgorlik majmualari tabarruk ziyoratgohlarga aylangan.

Joriy yil nufuzli xalqaro tashkilot — YUNESKO rahnamoligida Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yillik qutlug' yubiley sanasi dunyo miqyosida keng nishonlanayotgani ham shoir adabiy merosi jahon so'z san'atining bebaho xazinasiga aylanib, insoniyatning ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilib kelayotganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, turkman xalqining ulug' farzandi Maxtumquli Firog'iy nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiyoti va madaniyati tarixida ham alohida o'rin egallagan buyuk shoir va mutafakkirdir.

O'zbekiston dunyoda Maxtumquli asarlari eng ko'p nashr qilinadigan va o'qiladigan mamlakatlardan biri desak aslo yanglishmaymiz. Chunki yurtimizda mumtoz shoirning she'rlari va ular asosida yaratilgan qo'shiqlar kirib bormagan biror-bir xonadon, uning nomini bilmaydigan bironta o'zbek topilmaydi. Maxtumquli asrlar mobaynida xalqimizning o'z shoiriga aylangan desak mubolag'a emas. Uning she'rlari o'zining teran falsafiy ma'nosi, xalqona ruhi, yuksak badiiyati bilan baxshi va hofizlarimiz,

shoirlarimizga ilhom bag‘ishlab, hamisha davralarda yangrab, el-yurtimiz qalbida yashab keladi.

Maxtumquli she‘rlari sodda, xalqona ohanglarda, odamlar ko‘ngliga juda yaqin tarzda, tillarga “o‘rnashib” qolgan so‘zlar ila bitilgan. Shu bois uning aksar she‘rlari xalq ichida yod bo‘lib ketgan.

Maxtumquli asarlari o‘zbek tiliga bir necha bor tarjima qilinib, kitob holida chop etilgan. Bu xayrli ishni ilk bor ustoz Jumaniyoz Sharipov, keyinchalik iste‘dodli shoir Muzaffar Ahmad, so‘ngra taniqli shoir va tarjimon Mirzo Kenjabek, shoira va davlat arbobi Gulistan Annaklicheva (Matyakubova) shoirning “Saylanma” kitobini xalqimizga tuhfa etdi. Shu bois ham biz Maxtumqulini hech ikkilanmay o‘zbek sevgan turkman shoiri deyishimiz mumkin.

Darvoqe, Maxtumqulining o‘z davrida Xivadagi mashhur Sherg‘ozixon madrasasida tahsil olgani, Alisher Navoiydek buyuk so‘z san‘atkorini o‘ziga ustoz deb bilgani xalqlarimiz o‘rtasidagi chinakam do‘stlikning ajoyib namunasi deyishimiz mumkin. Maxtumquli Xivada juda ko‘p ustoz va maslakdoshlar, do‘st-yor va muxlislar orttirgan, bu erda kechirgan yillarini minnatdorlik bilan eslab, “Go‘zal Sherg‘ozi” kabi she‘rlar bitganini o‘zbek kitobxonlari yaxshi biladi.

Maxtumquli she‘rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatlarini, o‘z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalari, shoirning ichki kechinmalari «Bo‘lmasa», «Kelgay», «Bilan», «Naylayin», «Etmas», «Bular», «Ketdi zamona» kabi she‘rlarida teran ifoda etilganini anglash mumkin.

Jumaniyoz Sharipov tomonidan tarjima qilingan pand-nasihat asosiga yo‘g‘rilgan quyidagi she‘rlarini olib qaraylik:

*Har ahmoqqa aytma dardu so‘zingni,  
Hasrat o‘ti jisming yoqqancha bo‘lmas.  
G‘ussa bilan dona-dona ko‘zingdan  
Achchiq yoshlaringni to‘kkancha bo‘lmas.  
Qanoatda, izzatda tut o‘zingni,  
Tama‘ qilib, sarg‘aytirma yuzingni,  
Har nomardga hayf aylama so‘zingni,  
So‘zingning binosin yiqqancha bo‘lmas (“Bo‘lmas” she‘ri)*

Yoki:

*Yaxshilar yoninda yurgil sen o‘zing,  
Dur bo‘lsin doimo so‘zlagan so‘zing,  
Olimlarni uqsang, ochilar ko‘zing,*

*Johilni tinglasang, ko‘rdek bo‘larsan.  
Luqmondek har ishning chorasin bilsang,  
Rustamdek devlarga farmonlar bersang,  
Iskandardek erning yuzini olsang,  
Yakson bo‘lib, baribir erdek bo‘larsan.  
Maxtumquli, qarab so‘zla doshingni,  
Joyin bilib tortgil, bo‘lsa oshingni,  
Komil topsang, qo‘y yo‘lida boshingni,  
Er ketida yursang erdek bo‘larsan. (“Bo‘larsan” she‘ri)*

Shoir she‘riyatining o‘ziga xosligining kitobxonga hayotiy dars, tarbiya, o‘g‘itlar bera olishida, albatta.

Darhaqiqat, Maxtumqulining ishq-muhabbat mavzuidagi she‘rlari ham o‘zining ohangdorligi, chuqur falsafiy mazmun-mohiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Jumladan, shoirning «Maxtumquli, shukr et sen Xudoga, O‘lim barobardir shohu gadoga...» kabi she‘rlarida hayot va o‘lim, inson va borliq, go‘zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she‘rlarida islom dini hamda tasavvufiy qarashlar ta‘siri yaqqol seziladi.

Bundan tashqari Maxtumqulining aksariyat she‘rlariga Qur‘oni Karim oyatlari, hadisi sharifning mazmun-mohiyati singdirilgan. Ilmiy laduniydan xabardor bo‘lgan shoir bir umr piri komilga qo‘l berishni orzu qilib, o‘tkanlar :

*Komil topsang, qo‘y yo‘lida boshingni* degan satrlari ham buning yaqqol misolidir.

Sharq adabiyotini va falsafasini juda yaxshi bilgan shoir she‘rlarida payg‘ambarlar, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Rumi, Jomiy singari ulug‘ zotlar juda ko‘p tilga olinadi. Shuningdek, «Riyodan, yo Rab», «Sochdi Muhammad», «Yo Rasul» kabi she‘rlarida esa Allohga munajat, Rasululloh (sav)ga murojaat ohanglari seziladi va bu shoir she‘riyatining eng asosiy tamoyillaridan biridir. Masalan:

*Maxtumquli, bu kunninga shukr ayla,  
Allohning qudratin ko‘rib, fikr ayla,  
Rizq uchun g‘am ema, Haqni zikr ayla,  
Azalda yozilgan sendan tash bo‘lmas.*

(“Kel, ko‘nglim, sidq ila yolbor Allohga” she‘ri)

Maxtumquli ijodining o‘ziga xos uslublaridan biri xalq og‘zaki ijodi asosida yaratilgan she‘riyat namunalari. Shoir turkman xalqining maqol va matallarini, sharq xalqlari rivoyat va afsonalarini, xalq tiliga xos ayrim unsurlarni adabiyotga olib kirishda juda katta xizmat qilgan. Uning purma‘no misralari turkman millatining hikmatli so‘zlari, aforizmlar qatoridan o‘rin olgan. Shuningdek, Maxtumquli ijodi Yevropa va rus

sharqshunoslari, turkman va o‘zbek olimlari tomonidan qiyosiy tadqiq etilgan va o‘rganilgan. Xususan, Navoiy ijodining Maxtumquliga ta’siri va boshqa adabiy ta’sir masalalari bir qancha olimlar tomonidan tekshirilgan.

Maxtumquli she’riyati barcha turkiy millatlar, jumladan, o‘zbeklarning ham ma’naviy mulkiga aylangan. Bir necha marta she’rlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Ko‘plab she’rlari hofizlar tomonidan kuyga solib aytiladi. Maxtumquli haqida kinofilm, spektakl va badiiy asarlar yaratilgan.

Maxtumquli she’rlarida hayot falsafasi juda kuchli, u ko‘rgan-kechirganlarini doimo qalamga olib, ular yuzasidan teran xulosa qilgan shoirdir:

*Musulmonlar yovlashsa bir-biriga,  
Davlat qaytib, dinlar nuqsona kelgay.  
Zulm aylab, bir-birin olsa asirga,  
Falak bu ishlardan pushmona kelgay.  
Bir-birini chopmoq emas erlikdan,  
Bu ish shaytondandir, balki ko‘rlikdan,  
Manmanlik ayirgay elni birlikdan,  
Davlat ketib, navbat dushmona kelgay.  
Yaxshilik kamayib, iymon qisilsa,  
Yomonlar quturib, yo‘llar kesilsa,  
Shariat bo‘shashib, nomus ezilsa,  
Zamonaning izni shaytona kelgay.*

(“Nuqsona kelgay” she’ri)

Shoir she’riyati mard va matonatli, mehnatkash turkman xalqining ezgu qadriyatlari va olijanob fazilatlarini tarannum etishi, hamisha xalq bilan hamdard bo‘lishga, turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro ahillik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan mazmun-mohiyati bilan barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Махтумқули. Дунё ўтиб борадир: Шеърлар. – Т.: «Шарқ» 2007.
2. Гаррыев Б.А Магтымгулы. – Ашгабат, 1975.
3. Магтымгулы – 250 (Научные доклады, статьи и сообщения о поэте). - Ашхабад, 1989.